

"O`ZKIMYOSANOAT" AJ NING ASOSIY BINOSIGA 200 KVT.S QUVVATDAGI QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI O`RNATILDI

// 09 March 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yashil-elektr-energiyasi>



"O`zkimyosanoat" AJ ning binosiga 200 kVt.s quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi o`rnatildi va ishga tushirildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko`ra stansiya yiliga 296 400 kVt.s "Yashil" elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Fotoelektr stansiya shahar elektr tarmoqlari tizimiga ulangan bo`lib, "O`zkimyosanoat" Ajning elektr energiyasiga bo`lgan ehtiyojini qoplaydi va ortgan elektr energiyasini to`g`ridan-to`g`ri shahar elektr tarmoqlari tizimiga yetkazib beradi. Shu bilan birga, dam olish va bayram kunlari ishlab chiqariladigan elektr energiyasi shahar elektr tarmoqlari tizimiga realizatsiya qilinadi.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son qaroriga muvofiq, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga berilgan imtiyoz va preferensiyalar natijasida, qayta tiklanuvchi energiya manbalari (nominal quvvati 0,1MVt va

undan yuqori) qurilmalarni o`rnatganligi uchun, qurilmalar foydalanishga topshirilgan kundan boshlab 10 yil muddatga mol-mulk solig`idan ozod etilishi belgilangan. Bu esa, "O`zkiyosanoat" AJning xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Ta`kidlab o`tish lozim, hozirgacha bu kabi quyosh fotoelektr stansiyalari faoliyati Rossiya kimyo-texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, "Maxam-Chirchiq" va "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatlarida ham yo`lga qo`yilgan. Kimyo sanoatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan "Yashil energetika" dan samarali foydalanishni joriy etish "O`zkiyosanoat" AJning asosiy rejalaridan sanaladi.

"O`zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati